

Alisher Navoiy Ruboilyari Misolida Badiiy Matnlarning O'zbek Tilidan Ingliz Tiliga Tarjimasi Muammolari

*Ruxillaryeva Nilufar Shukrullo qizi*¹

Annotatsiya: She'riy tarjima – bu bir tilda bunyod etilgan manzarani ikkinchi tilda qayta yaratishdir. Shu bois she'riy tarjima, nasriy tarjimadan farqli o'laroq, shoirtarjimonning asari boshqa bir muallifning ijod mahsuli hisoblanadi va u tom ma'nodagi ijodiy mehnat bo'lib, iste'dod hamda san'atkorona mahorat bilan amalga oshiriladi. She'riy tarjimaning boshqa turdag'i (sinxron, ilmiy-texnikaviy, siyosiypublisistik, axborot-analitik matnlar tarjimasi) xususan, badiiy tarjimadan o'zaro farqli jihatni tadqiq qilingan. Eng muhim she'riy tarjimada o'ta muhim bo'lgan ijodkorlik va so'z qo'llash mahorati ushbu maqolaning tahlil markazini tashkil etadi.

Bundan tashqari, qofiyalarning bir-biriga o'zaro mutanosibligi va ruhiy instinktni saqlay olish masalasiga katta e'tibor qaratilgan [1].

Kalit so'zlar: adabiyot, badiiy asar, tarjima, tarjimon, she'r, qofiya, ruhiyat, ilhom, iste'dod, mahorat, badiiy did.

KIRISH

Tarjima odatda oddiy so'zlar yig'indisi sifatida ko'rinishi mumkin. Biroq, uning zamirida o'quvchi uchun bir qarashda kishi anglashi qiyin bo'lgan murakkab jarayon yotadi. Qolaversa, tarjimonni ko'proq o'z ustida ishslash, qayta-qayta tahlil qilib so'zning nozik jihatlarini taqdim etishi uchun grammatik va stilistik bo'yodkorlik bilan bog'liq muammolarni yanada chuqurroq o'rganishga undaydi. Buning sababi biror bir tildan ixtiyoriy olingan bir matnni boshqa bir tilga tarjima qilishda til bilish ko'nikmalarining o'zingga kifoya qilib qolmasligi aniq. Buning uchun tarjimon biz yuqorida sanab o'tgan tarjima muammolari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi kerak. She'riy tarjimaga qo'l uradigan har bir tarjimon nafaqat tarjima masalalarini anglabgina qolmasdan birmuncha yaratuvchanlik qobiliyatiga ham ega bo'lishi kerak. Negaki, biron bir badiiy parchani tarjima tilida qaytadan namoyon qilishda ilhom, iste'dod va ijodkorlikka o'xshash inson faqatgina qalbi bilan his qiladigan mavhum unsurlarning vazifasi beqiyosdir. Badiiy tarjima aynan ana shu jihatni bilan tarjimaning boshqa turlaridan o'zaro farqlanadi. Misol uchun: ilmiy tarjimaning vazifasi – kitobxonlarga muayyan ilmiy matnning asl mazmun – mohiyatini terminalogiyadan foydalangan holda ochib berish bo'lsa, badiiy tarjimada esa asar muallifining ichki kechinmalari va ruhiyati bo'yodkor so'zlar bilan ijodiy yondashgan holda o'quvchiga yetkazib berishdir. Asliyat va tarjima tillari badiiy-uslubiy vositalarini chuqur matniy va lisoniy tahlil qilish asosida qiyosiy o'rganishgina san'atkorni tarjima amaliyotida uchrab turadigan qator illatlardan saqlab qolgani holda, unga asliyat lisoniy-uslubiy hodisalarini vazifalarini ijodiy tiklash imkoniyatini beradi. Zero, mohir va bilimdon san'atkorlar tomonidan amalga oshirilgan mukammal tarjimalar asosida yuzaga kelgan holisona nazariy umumlashmalar, ilmiy xulosalar shu soha amaliyoti rivoji va istiqbolini ta'minlaydigan yetakchi omillardandir.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA

Mazkur soha vakillarini biz haqli ravishda shoir-tarjimon deb ataymiz. Nasriy asarda syujet, kompozitsiya, konflikt, voqealar va albatta muammolar yechim bo'ladi. Ustoz shoirimiz Asqad Muxtor ta'biri bilan aytganda, tarjimon, chizmakash emas, rassomdek ijod qiladi va tarjimaning turli, jumladan, metonimik transformatsiya usullari, implitsit (yashirin) ma'nolarni, eksplitsit (mufassal)

¹ O'zbekiston Milliy universiteti xorijiy filologiya fakulteti xorijiy til va adabiyoti 2-bosqich talabasi



bayon qilish yo'llari orqali muallif fikrini kitobxonga yetkazishga intiladi. Ammo to'rt satr she'rdagi ohang va lirik kechinmani o'quvchi qalbidan joy oladigan darajada tarjima qilish yuqorida tilga olib o'tkanimizdek, shoirona ilhom va mahoratni talab qiladi. Ma'lumki, tarjima ham muayyan darajada tarjimonning ijod mahsuli sanaladi.

She'riy tarjimada tarjima qilinayotgan matn mazmuni saqlanibgina qolmasdan uning ohangdorligiga ham katta ahamiyat qaratish lozim bo'ladi. Bu holat esa o'z o'rnida tarjimondan ulkan mahorat hamdashoirlikdan birmuncha xabardor bo'lismeni talab etadi. Negaki, ba'zi so'z va so'z birliklarini asl holicha tarjima qilishning imkonni bo'lmaydi. Bunda she'r misralaridagi o'zaro qofiyadorlikni saqlab qolish mushkul bo'lib qoladi. Yoki aksincha, qofiya saqlanib qolninganda undagi ruhiyatni tarjima tiliga to'laqonli ko'chirib o'tish masalasi tug'iladi. Mana she'riy matnlarni tarjima tilida qayta yaratishning asl murakkabligi [2].

NATIJALAR

Bizning ishimizning asosiy maqsadi - she'riy matnlarning bir tildan boshqasiga o'girish jarayonida lингвистлар дуч келадиган ба'зи muammolarni ilmiy tahlillar natijasida bayon qilish va tarjima sohasining rivojida oz bo'lsada o'z hissamizni qo'shish. Jumladan, so'z qo'llash mahorati, nafaqat mazmun balki tovushlarning o'zoro ohangdorligini saqlab qolgan holda bayon etish. Tarjima sohasi bor ekan, biz bu orqali turli millat va elatlarning nodir nazm va nasr bog'lariga sayohat qilaolamiz va aynan shu soha bizning boy merosimizni bebahoh adabiyot durdonalarimizni butun dunyo mutoalaa qilish imkonini yaratib beradi [2].

MUHOKAMA

O'zbek tilida: Gar oshiq ersang, zeb-u takallufni unut

Yaxshi-yu yomon ishda taxallufni unut,

O'tgan gar erur yamon, taassufni unut,

Kelgan erur yaxshi, tasarrufni unut.

Ingliz tilida: "If you are in love, forget courtesy,

If you have good and bad case, forget conflict,

If the old one is unworthy, forget regret,

If the new one is worthwhile, forget possession.

Ushbu to'rtlik Alisher Navoiy qalamiga mansub. Ruboiy vositachi tilsiz tarjima tiliga tarjima qilindi. Keling, tarjimani birma-bir tahlil qilib chiqamiz.

O'zbek tilida: "Gar oshiq ersang, zeb-u takallufni unut"

Ingliz tilida: "If you are in love, forget courtesy"

Tarjimadan ko'rinish turibdiki, bu so'zma - so'z tarjima usuli orqali tarjima qilingan. Asl nusxa matnidagi "gar" va "ersang" so'zlar "agar" va "bo'lsang" so'zlarining adabiy shakldagi ko'rinishlari hisoblanadi. "Takalluf" so'zi esa xushmuomalalik va mulozamat tushunchalarini ifodalaydi.

O'zbek tilida: "Yaxshi-yu yomon ishda taxallufni unut"

Ingliz tilida: "If you have good and bad case, forget conflict"

Bu parchani tarjima qilishda o'quvchiga tushunarliroq chiqishi uchun

Konkretizatsiya usulidan foydalilanigan. Agar so'zma - so'z tarjima qilinganda "At good and bad work, forget conflict" tarzida chiqardi. Bu esa misrani mujmal qilib qo'yishi mumkin edi. She'riy parchadagi "taxalluf" so'zi "xilof, ixtilof" degan ma'nolarni anglatada.

O'zbek tilida: "O'tgan gar erur yamon, taassufni unut"

Ingliz tilida: "If the old one is unworthy, forget regret"



Shoir bu misrada “o’tgan” deya tark etgan insonni, “Taassuf” so’zi orqali esa, “afsus, pushaymon” mazmunini izohlayapti. Tarjimani “gone”deya tajima qilish o’rniga “the old one”deb tarjima qilishni maql ko’rdik.

O’zbek tilida: “Kelgan erur yaxshi, tasarrufni unut”

Ingliz tilida: “If the new one is worthwhile, forget possession”

Ko’rib turganingizdek, bu misraning tarjimasi ham nisbatan yuqoridagiga o’xshash. Ya’ni, bu yerda ham “come”so’zi “the new one” tarzida o’tkazilgan. “Tasarruf” so’zi esa “egalik qilish” ma’nosida qo’llangan. [4].

XULOSA

Maqolada muhokamaga sabab bo’lgan mavzular she’riy tarjim yo’nalishining asosiy me’yorlaridandir. Bu ma’lumotlar haqida yaxshi bilimga ega bo’lish, ularni o’z o’rnida mahorat bilan qo’llay olish imkoniyatini yaratadi va bizning tarjimon bo’lib shakllanishimizda muhim o’rin tutadi. Qutb Xorazmiy aytganidek: “Tarjimon – tarjima qilinayotgan asarning oshig’i, u o’z muhabbatini o’zga borliqda ko’radigan, uning sog’inchi oldida boshqa barcha sog’inchlarni unutib yuboradigan ijodkor inson”.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Kamoljnovich, S. J. (2022). JK ROULINGNING FANTASTIK ASARLARIDAGI ANTROPONIMLARNING LINGVO-PERSPEKTIV MUAMMOLARI. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(1), 334-343.
2. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-1-334-343>
3. SOLIJONOV JURAALI KAMOLJONOVICH FINAL QUALIFICATION WORK «ENGLISH-UZBEK TRANSLATION PROBLEMS OF THE NOVEL "HARRY POTTER AND THE SORCERER'S STONE" BY J. K. ROWLING»
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/she-riy-tarjimada-so-z-qo-llash-mahorati/viewer>
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/she-riy-tarjimada-so-z-qo-llash-mahorati/viewer>
6. <https://savodxon.uz/izoh>
7. <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/navoiy-ruboiylar.html>
8. Jo’ramurodova, Z., & Solijonov, J. (2022, April). JK ROULINGNING “BIDL QISSANAVIS ERTAKLARI” (“THE TALES OF BEEDLE THE BARD”) ASARIDAGI ANTROPONIMLARNING O’ZBEK TILIDAN INGLIZ TILIGA TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLARI. In МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ: “СОВРЕМЕННЫЕ ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ПАРАДИГМЫ: ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ТРАДИЦИЙ И ИННОВАЦИЙ II” (Vol.2, No. 18.03, pp. 554-560). <https://doi.org/10.47100/nuu.v2i18.03.115>
9. Мусаев Кудрат. Таржима назарияси асослари: Дарслик. Т.: Узбекистан Республикаси ФА«Фан» нашриёти, 2005.-46

